

## TIL O'RGANISHDA MOTIVATSIYANING ROLI

**Yodgorov Bekzod Dilshod o'g'li<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti,

15-24 TM guruh talabasi

**Haydarova Go'zalxon Bahodir qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti

Ingliz tili o'qituvchisi

### MAQOLA MALUMOTI

#### MAQOLA TARIXI:

Received: 12.03.2025

Revised: 13.03.2025

Accepted: 14.03.2025

#### ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada hozirgi zamon uchun eng muhim bo'lgan til o'rganish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal qilish ushbu jarayoning naqadar muhim ekanligi ,qiyinchilik va zerikkanda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish uchun muhim sanalgan motivatsiya turlari va ba'zi bir yo'nalish ,ko'nikmalar haqida so'z yuritiladi.

#### KALIT SO'ZLAR:

motivatsiya, til  
o'rganish, ta'lim, ichki  
motivatsiya, tashqi  
motivatsiya, madaniyat,  
chet tili, sayohat.

**KIRISH.** Hozirgi zamon talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, til o'rganish har qachongidan ham muhim sanaladi. Hozirda dunyo bo'ylab xalqlarning o'zga xalqlar madaniyati va tabiatiga qiziqishi, talabalarning chet davlatda o'qishga bo'lgan qiziqishi, daromad yuqori bo'lganligi sabab chet davlatga ishlashga bo'lgan talab ham kun sayin ortib bormoqda. Bu esa sayohatlarning ko'payishi, insonlarning o'zga davlatlarga tashrifini ko'paytirmoqda.

Til muloqot vositasi ekanigi sabab ushbu jarayonlar til o'rganishga bo'lgan talabni tobora ortishiga olib kelmoqda. Til o'rganish jarayonida biroz qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Ushbu jarayon uzoqroq vaqt talab etganligi uchun o'rganuvchi zerikishi mumkin. Til

o‘rganuvchiga berilgan to‘g‘ri motivatsiya esa bu jarayonni qiziqarli va sifatli bo‘lishiga olib keladi.

### **Asosiy qism**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni, ommalashtirishni samarali tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq bizning yurtimizda ham chet tilini o‘rganishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Til o‘rganishdan maqsad va uning inson hayotidagi o‘rni:

Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo‘ladi. Maqsad tushunchasi rejorashtirilgan natija, tasavvurdagi oqibat ma’nosini anglatadi. Chet til mifikada nima uchun o‘qitiladi, degan savolga chet tilini amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda o‘rganadilar, deb javob qaytarish mumkin. Ta’lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma—topshiriq bo‘lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi.<sup>8</sup>

Dunyo globallashib borayotgan bir paytda til o‘rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. chet tilini bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish uchun, balki ta’lim, ish va madaniy aloqalar uchun ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ko‘plab mutaxassisliklarda xorijiy til bilish asosiy talablardan biri sifatida qo‘yiladi. Shuningdek, til o‘rganish inson tafakkurini kengaytirib, yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Har bir til—bu o‘ziga xos madaniyat va tarixni aks ettiradi. Chet tilini o‘rgangan inson o‘sha tilga xos madaniyat, urf-odat va an’analarni chuqurroq tushuna boshlaydi. Masalan, arab yoki ingliz tilini o‘rganish orqali ularning madaniyati, odob-axloqi va hayot tarziga chuqurroq nazar tashlash mumkin.

Bugungi kunda ilmiy va texnologik taraqqiyot asosan rivojlangan davlatlarda sodir bo‘layotganligi sababli, ilmiy manbalar asosan ingliz, nemis yoki xitoy tillarida mavjud. Til bilgan olimlar va muhandislar ilm-fanni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Undan tashqari til bilish insonlarga sayohat qilishni osonlashtiradi. Sayohat qilishni yoqtiradigan insonlar uchun til bilish katta ustunlik beradi. Agar biror kishi sayohat qilayotgan mamlakat tilini bilmasa, muloqot qilish, yo‘l so‘rash yoki xizmatlardan foydalanish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Biroq, til bilgan inson bemalol harakatlanib, mahalliy odamlar bilan muloqot qila oladi, bu esa sayohatni yanada qiziqarli qiladi.

<sup>8</sup> .Jamol Jamolov. Chet tili o‘qitish metodikasi «O‘QITUVCHI» Nashriyot-matbaa ijodiy uyi.TOSHKENT-2012

Til o‘rganish uzoq va davomli jarayon bo‘lib, sabr, intizomni talab qiladi. Ko‘pchilik odamlar boshlang‘ich bosqichda katta ishtiyoy bilan til o‘rganishga kirishadi, lekin vaqt o‘tishi bilan qiyinchiliklarga duch kelib, motivatsiyasini yo‘qotishi mumkin. Aynan shu sababli motivatsiya til o‘rganish jarayonida eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Motivatsiya insonni oldinga harakat qilishga undaydi, qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi va natijaga erishishga rag‘batlantiradi.

Motivatsiya (lot. motivatio)-subyektning qandaydir maqsadlar, qiziqishlari mavjudligi asosidagi faoliyatga tashqi va ichki xohishining ifodasidir. Motivatsiya barcha pedagogik ta’sir tizimida shakllanadi, biroq avvalo bevosita o‘qish faoliyatida tarbiyalanadi.<sup>9</sup>

Motivatsiyaning ichki va tashqi motivatsiya kabi turlari mavjud.

Ichki motivatsiya:bu insonning o‘z xohish va qiziqishlaridan kelib chiqadigan motivatsiya turidir. Ichki motivatsiya til o‘rganish jarayonini qiziqarli bo‘lishiga olib keladi. Ichki motivatsiya orqali til o‘rganishning foydali tomoni bunda inson majbur bo‘lgani uchun emas balki o‘z xohishlarida tilning muhim ahamiyatga ega ekanini his qilgani uchun ham o‘rganadi. Bu xohishlarga yangi bilimlar orttirish, til bilish orqali xorijiy adabiyotlarni asl nusxada o‘qish,chet el fuqarolari bilan bemalol muloqot qilish,yangi madaniyatlarni o‘rganishni misol qilsak bo‘ladi.

Tashqi motivatatsiya: Bu insonning atrof muhitdan kelib chiqib harakatlanadigan motivatsiya turidir. Tashqi motivatsiya maqsadga erishish uchun undovchi kuch hisoblanadi. Masalan til o‘rganishdan asosiy maqsad yaxshi ish topish, xorijda o‘qish yoki ishlash bo‘lishi mumkin.Tashqi motivatsiya qisqa bo‘lishi mumkin.Qo‘ylgan maqsadga erishish bilan cheklanishi mumkin.Shuning uchun til o‘rganish jarayonida tashqi va ichki motivatsiyani birlashtirish kerak. Bu bilan til o‘rganish jarayoni samarasi ortadi.

Til o‘rganishda til o‘rgatuvchining motivatsiya berishi ham juda muhim hisoblanadi. Agar o‘qituvchi to‘g‘ri motivatsiya bera olsa til o‘rganuvchining qiziqishi yanada ortadi , o‘ziga ishonchi ortadi va til o‘rganishdan zavq oladi. o‘qituvchilar motivatsiya berishdan oldin avvalo til o‘rganuvchini maqsadini aniqlashtirib olishi kerak. Chunki hammaning til o‘rganishdan maqsadi ham turli xil. Ularga motivatsiya berishda ularning aniq maqsadini bilish katta rol o‘ynaydi. Til o‘rganish jarayonlarini faqat an’anaviy usulda emas biroz noodatiyoq tashkil etish qiziqishning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

---

<sup>9</sup> Ochilova G.O, Akbarova S.Sh. Kasbiy kompitentlik.«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyii», 2022.324-bet

Til o'rganish orqali maqsadiga erishgan va rivojlangan insonlar hayoti bilan ular til o'rganish orqali erishgan yutuqlari haqida ma'lumot berish bilan motivatsiyani orttirish mumkin. Masalan: Til o'rganib, xorijiy universitetga kirgan talaba, til bilish ortidan yaxshi ish topgan inson.

Motivatsiyani yana bir turi bu mukofotlashdir. Mukofotlash turli xil bo'lishi mumkin. Masalan: maqtov va ijobjiy fikr bildirish (Sen bugun yaxshi gapirding, yangi so'zlarni tez o'rganding), mukofot tizimi (til o'rganishda faollik ko'rsatib harakat qilayotgani uchun pul mukofoti va boshqa sovg'alar) va yana bir qancha narsalarni misol keltirish mumkin.

Biz o'yaganlarimizni amalga oshadi deb ishonamiz va koinot odamni u tez-tez o'ylaydigan haqiqat bilan mukofotlaydi. Muvaffaqiyat va kuchli motivatsiya samarali o'sishning eng muhim shartidir. Aks holda, siz shunchaki o'zingizni bajara olmaysiz. Shuning uchun erishib bo'lmaydigan narsaga qanday erishishni va o'zingizga qanday ishonishni o'rganishingiz kerak.<sup>10</sup>

**Xulosa.** Til o'rganishda motivatsiya hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. U insonni tilni o'rganishga undaydi, qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi va jarayondon zavqlanish imkonini yaratadi. Motivatsiyasi kuchli bo'lgan o'rganuvchi til o'rganishga mas'uliyat bilan yondashadi, xatolardan qo'rqlaydi va o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun tinimsiz harakat qildi. Motivatsiyaning ijobjiy ta'sirini oshirish uchun o'quvchilar aniq maqsad qo'yishlari, qiziqarli o'rganish usullaridan foydalanishlari hamda muvaffaqiyatlarini doimiy kuzatib borishlari muhimdir. Shuningdek, o'qituvchilar va atrofdagilar tomonidan qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va ilhomlantirish ham o'quvchilarning ishtiyoqini oshiradi. Umuman olganda, motivatsiyasiz til o'rganish juda qiyin kechadi, lekin yetarli ishtiyoq va

Muhimi, til o'rganish jarayonini zavqli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil qilishdir. Bu esa til o'rganishga bo'lgan qizquvchanlikni yanada oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ochilova G.O, Akbarova S.Sh. Kasbiy kompitentlik.«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022.324-bet
- 2.Jamol Jamolov. Chet tili o'qitish metodikasi «O'QITUVCHI» Nashriyot-matbaa ijodiy uyi.TOSHKENT-2012
3. Gardner, R. C. (1985). Social Psychology and Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation. Edward Arnold.

<sup>10</sup> Ochilova G.O, Akbarova S.Sh. Kasbiy kompitentlik.«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022.324-bet